

BOSHLANG`ICH TA`LIM O`QUVCHILARIDA MATEMATIK TASAVVURNI SHAKILLANTIRISH.

Goyibova Dilzoda G‘apparjonovna

Namangan shahar 12-umumiy o‘rta ta’lim maktabi boshlang`ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola “Boshlang`ich ta`lim o`quvchilarida matematik tasavvurlarni tarkib toptirish” masalasini asosiy nazariy va uslubiy masalalarini qanrab olgan bo`lib, Boshlang`ich ta`lim o`quvchilarida miqdor va sanoq, kattalik, geometrik figuralar, fazo va vaqt kabi tushunchalarini o`rgatishga oid ishlarni rejalashtirish, tashkil va o`tkazishga oid tavsiyalar berilgan. Hamda bolalarga samarali va to`g`ri bilimlar ayniqsa matematik bilimlar berish haqida ko`rsatmalar va ma`humotlar yoritib berilgan.

Kalit so`zlar

Pedagogika, boshlang`ich, metodik masalalar, matematik, ta`lim, . Bolalar, boshlang`ich ta`lim, maktab ta`limi, didaktik tizim.

Аннотация

В данной статье освещены основные теоретические и методические вопросы проблемы «Формирование математических представлений у младших школьников», и приведены рекомендации по их планированию, организации и приводятся виды деятельности, связанные с обучением таким понятиям, как время. Также выделены инструкции и информация о предоставлении детям эффективных и правильных знаний, особенно математических.

Ключевые слова

Педагогика, начальная школа, методические вопросы, математика, образование. Дети, начальное образование, школьное образование, дидактическая система.

Annotation

This article covers the main theoretical and methodological issues of the issue of "Formation of mathematical concepts in primary school students", and includes quantity and counting, size, geometric figures, space in primary school students. and recommendations on planning, organizing and carrying out activities related to teaching concepts such as time are given. Also, instructions and information about providing children with effective and correct knowledge, especially mathematical knowledge, are highlighted.

Key words

Pedagogy, elementary, methodological issues, mathematics, education. Children, primary education, school education, didactic system.

Eng avvalo, boshlang`ich sinf o`quvchilariga matematikadan samarali ta`lim berilishi uchun o`qituvchi boshlang`ich sinflarda matematika o`qitish metodikasini egallab, chuqur o`zlashtirib olmog`i lozim. Respublikamizda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab

jamiyatni isloh qilish va yangilash jarayonining eng muhim bug`ini jamiyatdagi demokratik o`zgarishlarning, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning, respublikaning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvining zarur va majburiy sharti sifatida ta`lim sohasini isloh qilish siyosati izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi yosh avlodga uzluksiz ta`lim berish va uni tarbiyalash jarayonini yaxlit qamrab oladigan yagona ta`lim tizimi hisoblanadi. Ta`lim tizimining har bir bo`g`ini alohida o`ringa ega.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” da maktab ta`limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi” talablarida “ta`lim tarbiya jarayonini shakllantirish ta`lim mazmunini aniqlash, ta`lim tarbiya jarayonini amalga oshirishning didaktik qonuniyatlarini va prinsiplarini ishlab chiqish, davlat ta`lim standartlarini takomillashtirish, o`quv dasturlari, darsliklarning yangi avlod, o`quv metodik majmualar yaratish” vazifasini hal qilish takidlab o`tilgan.

Metodik masalalar har bir darsda yuzaga keladi, Shu bilan birga odatda, ular bir qiymatli yechimga ega emas. O`qituvchi darsda yuzaga kelgan metodik masalaning mazkur o`quv vaziyati uchun eng yaroqli yechimini tez topa olishi uchun bu soxada yetarlicha keng tayyorgarlikka ega bo`lishi talab etiladi.

Boshlang`ich ta`lim metodikasi o`qitish vositasi sifatida mayjud didaktik o`yinlar mantiq ilmi va matematik nuqtai nazaridan mazmunan yetarli emasligi tufayli didaktik o`yinlardan foydalilaniladi va o`rganilgan materialni faqat mustaxkamlash vositasi sifatida foydalilaniladi. Boshlangich talim yoshidagi bolalarda elementar matemetik tasavvurlarni rivojlantirishni amalga oshirish muvaffaqiyati o`qituvchi ixtisosiga, uning kasbga oid mahoratiga bog`liq. Bolalarda elementar matematik tasavvurlarni rivojlantirish masalalari ishni to`g`ri rejalashtirish va tashkil qilishsiz hal bo`lmaydi. Mamlakatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, xalq ta`limi tizimida bo`layotgan o`zgarishlar «Ta`lim to`g`risida»gi qonunda hamda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da ko`rsatib o`tilgandek, bar bir boshlang`ich sinf o`qituvchisi oldiga muhim vazifa qo`yilmoqda. Bu vazifalar boshlang`ich ta`lim uchun xos bo`g`inlarni ajratish imkonini beradi, bu bo`g`inlar xilma-xil o`quv fanlari dasturlarida, o`quv rejalarida, darsliklarda ta`limning joriy etilishi hamda metodik tizimida biror tarmoqni hosil qilishi mumkin. Davlat ta`lim standartlari o`quv fani bo`yicha o`quv-metodik majmualar (dastur, o`quv rejasi, darsliklar)ni yaratish uchun keng imkoniyatlar ochib beradi, shuningdek , o`quv fanlar aro bog`lanish va bilimlarini muvofiqlashtirish tamoyili asosida o`quv fanlarining o`zaro bog`liqligi va fanlar aro bog`lanishini ta`minlashga xizmat qiladi. Boshlang`ich sinflar o`qituvchisining metodik-matematik tayyorgarligi deyilganda biz uni ilmiy dunyoqarash asosida matematika o`qitish metodikasini umumiyligini pedagogik-psixologik va matematik tayyorgarlik bilan uzviy bog`lanishda tayyorlanishni tushunamiz. Bunday tayyorlanish vazifasiga matematikadan boshlang`ich ta`lim sohasida ma`lum bilim va uquvlarni egallash hamda bolalarni o`qitish orqali tarbiyalashni o`zlashtirishi kiradi. Metodik-matematik tayyorgarlik boshlang`ich sinf o`qituvchisini tayyorlashning tarkibiy qismi bolib, uning ta`limiy-tarbiyaviy faoliyatidan ajralgan holda qaralishi mumkin emas. Ikkinci tomonidan, boshlang`ich sinflarda matematikani o`qitish birinchi bosqichdir, ya`ni bolalarni navbatdagi matematika kursini o`zlashtirishga tayyorlash bosqichidir. Matematikadan boshlang`ich ta`limning bu ikki jihat (aspekti) (boshlang`ich ta`limning tarkibiy qismi va matematik tayyorgarligi) metodikada o`zining munosib aksini topishi lozim. Boshlang`ich

matematikakursi, bolalar tafakkuri rivojlanishiga yordam beradi. Shu bilan boshlang`ich bilimlar yagona majmuini yaratadi, ikkinchitomondan, zaruriy metodologik tasavvurlarni va fikrlashning mantiqiy tuzilishlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan boiadi. 6-10 yoshli bolalarining fikrlash qobiliyatlarini shakllanishida mas’ul davr ekanligini psixologlar isbot qilishgan. Shu sababli boshlang`ich ta’lim metodikasining , xususan , matematikadan boshlang`ich ta’lim metodikasining vazifalaridan biri o‘qitishning yetarlicha yuqori rivojlaniruvchi samaradorligini oshirishni ta’minlashda o‘qitishni bolalaring aqliy rivojlanishlariga ta’sirlarini jadallashtirishdan iborat. Bolalarni 6-7 yoshdan o‘qitishning mazmunida muammolar yuzaga keladi. Bu bog‘cha-maktablarda o‘qitish orqali hal etiladi. Sanoqni o‘rganish, qo‘sish va ko‘paytirishni birinchi bosqichda o‘rgatish (20 ichida) boshlang`ich ta’limning asosiy vazifasi bolib kelgan. Biroq, bu vazifa yagona bolib qolmasdan , balki u bolalarni matematikani o‘rgan ishga yanada kengroq va har tomonlama tayyorlash ishining tarkibiy qismi ikkita asosiy yo‘l bilan belgilanadi:

1)pedagogik yo‘l, ya’ni bolalar fikrlashini qollaniladigan matematik mulohazalarga tayyorlash;

2)matematika yo‘li, ya’ni bolalarni eng muhim matematik tushunchalari va eng avvalo , natural son hamda geometrik shakl tushunchalarini o‘rganishga tayyorlash.

Matematika boshlang`ich ta`lim metodikasining predmeti quyidagilardan iborat:

1.Matematika o`qitishdan ko`zda tutilgan maqsadni aniqlab asoslash (nima uchun matematika o`qitiladi, o`rgatiladi)

2. Matematika o`qitish mazmunini ilmiy ishlab chiqish (nimani o`rgatish) bir tizimga keltirilgan bilimlar darajasini o`quvchilarining yosh xususiyatlariga mos keladigan qilib qanday taqsimlansa, fan asoslarini o‘rganishda izchillik ta`minlanadi, o`quv ishlariga o`quv mashg`ulotlari beradigan yuklama bartaraf qilinadi, ta`lim mazmuni o`quvchilarning aniq bilim olish imkoniyatlariga mos keladi.

3.O`qitish metodlarini ilmiy ishlab chiqish (qanday o`qitish kerak) ya`ni, o`quvchilar hozirgi kunda zarur bo`lgan iqtisodiy bilimlarni, malaka, ko`nikmalarni va aqliy faoliyat qobiliyatlarini egallab olishlari uchun o`quv ishlari metodikasi qanday bo`lishi kerak?

4.O`qitish vositalari-darsliklar, didaktik materiallar, ko`rgazmali qo`llanmalar va o`quv texnika vositalaridan foydalanish (nima yordamida o`qitish)

5.Ta`limni tashkil qilishni ilmiy ishlab chiqish (darsni va ta`limning darsdan tashqari shakllarini qanday tashkil etish).

Boshlang`ich sinf o`qituvchisi matematika fanidan tuzilgan dasturga binoan o`quvchilarga quyidagi bilimlarni berishni nazarda tutadi:

- Butun nomanfiy sonlarni raqamlash;
- Asosiy miqdorlar va ularning o`lchov birliklari;
- Arifmetik amallar;
- Matnli masalalar;
- Algebraik material(tenglik, tengsizlik va b.q.)
- Geometrik material;

Bolada matematik tushunchalarni shakllantirishda muammoli ta’lim katta ahamiyatga egadir. Muammoli ta’lim – bu didaktik tizim bo‘lib, pedagog (tarbiyachi)larni muammoli

xarakterdagi savollarni yechishga jalg qilishni nazarda tutadi. Psixologlar fikrlash muammoli vaziyatdagi savoldan boshlanadi, deb hisoblaydilar. Shuning uchun muammoli vaziyat muammoli ta‘limning asosini tashkil qiladi, muammoni yechish uchun sharoit yaratadi. Vaziyat – bu ilmiy bahs-munozara orqali tushunchalarini tartibga solish uchun zaruriyatga chaqiruvchi jarayondir. Muammoli jarayon – o‘zining yechilishi uchun izlanishni talab qiladigan anglangan qiyinchilikdir. Berilgan savol qiyinchilik yaratsa va javob berishda pedagog (tarbiyachi)dan yangi bilim va fikriy faoliyatlarni qilinsa, o’shanda muammoli vaziyat yaratiladi. Muammoli vaziyatda pedagog (tarbiyachi)lar e’tibori savollarning yechilishiga to’liq yo’naltiriladi, pedagog (tarbiyachi)larning fikrashi moyil qilinadi (to’g’rulanadi). Muammoni yechishda ushbu moyillik aniq maqsadga aylanadi. Bola tomonidan asosiy bilim, tushuncha, og’zaki, masala yechish uslublari chuqur va mustahkam o’zlashtirilgandagina, muammoli ta’lim foydali bo’lishi mumkin. Ta’lim olish jarayonidagi muammoli vaziyatning ahamiyati shundaki, bolalar yerda „izlanuvchi” va birinchi kashfiyotchidek bo’lishadi. Bunda muammoli vaziyat bu avval yaratiladi vatahlil qilinadi, muammoni yechish uchun qulay usul aniqlanadi, muammo yechiladi va xulosa o’rganiladi. Muammoli ta’limdan foydalanish jarayonida mavzuni muammoli bayon qilish, evristik suhbat va izlanish uslublari to’plamidan foydalanish mumkin.

Zamonaviy boshlang`ich ta’limning o‘zi nimadan ibo rat bolishi kerak? Bola 1-4-sinflarda qanday bilimga ega bolishi lozim? O‘quvchilarga qachondan boshlab, qanday qilib, qanday usulda va uslubda milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni o’rgatishimiz, chuqur anglatishimiz kerak, degan savollar boshlang`ich ta’lim tizimi oldidagi asosiy masalalardan biri bolib kelmoqda. So‘ngi yillarda mamlakatimizda maktabda matematika o‘qitish, ayniqsa, boshlang`ich ta’lim tizimida o‘zkolami va ahamiyati jihatidan nihoyatda katta bolgan o’zgarishlarni amalga oshirdi. Masalan, 1997yil 27avgustdagagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning 12-m oddasi I-IVsinflarni o‘qitishga bag‘ishlangan. O‘zbekiston Respublik asida“ Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning 3.3.1-bandi uzluksiz ta’limni rivojlantirishda I-IVsinflarda o‘qitishni tashkil qilishning rejali ko‘rsatilgan. Maktab ta’limi oldiga tamomila yangi maqsadlarning qo‘yilishi matematika o‘qitish mazmunining tubdan o’zgarishiga olib kelmoqda. Matematika boshlang`ich kursi mazmunida ham , darslik va qo‘llanmalardan foydalanish metodikasida ham rivojlanish bolishini talab qiladi.

Mening fikrimcha birgalikda ishlash bilish faoliyatining faollashuviga yordam beradi va boshlang`ich maktab yoshidagi o‘quvchilarni matematik salohiyatlari va tasavvurlarini shakillanishiga katta yordam beradi. Shuningdek o‘quvchilarda o‘zaro nazorat qilish va o‘zaro yordam berish sifatlarini shakllantiradi, tarbiyaviy vazifani ado etadi.

Yosh o‘quvchilarda matematik salohiyatni va tasavvurni shakillantirish muammosini hal etilishida darsning ayrim tarbiyaviy o‘rnlari emas, balki butun o‘quv jarayoni ta’lim mazmuni, o‘quv ishi usullari, darsni puxta tashkil etilishi yordam berishini unutmaslik kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Leushina A.I. Formirovaniya elementarnix matematicheskix predstavleniy u detey doshkohnogo vozrasta. M. 1974.
- 2.B.B.Danilova . Matematicheckaya podgotovka detey v doshkohnix uchrejdeniyax.

М. 1987

- 3.Karimov.I.A. “O‘zbekistonning siyosiy ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari” T-O‘zbekiston 1995 y 74 bet
- 4.Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 20 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma‘ruzasi. Adolat gazetasi 2011 yil 1 sentabr № 38 son.
- 5.Бикбаева. Н.И. Левенберг. ,Л.Ш. “2-синфда математика” Т-“Укитувчи” 1988 й 343- бетлар
- 6.Бабанский.Ю.К “Хозирги замон умумий таълим мактабида укитиш методлари” Т-Укитувчи 1990 й 227 бет
- 7.Jumayev.M. va b.q. “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi” Т-2005 y 312 b